


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafruz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	
XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI	
.....	236
Shoxida Ibadullayeva	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	
YO'LLARI.....	240
Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li	
CHORRAHA SVETOFORLARINING AQLLI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV PARAMETRLARINI	
SUMO MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	244
Bayozov Ravshan Rajabovich	
M-39 YO'LINING 989-1013 KMLARIDAGI TOG'LI HUDUDLARDA SODIR ETILGAN YTHLARNING	
TAHLILI ASOSIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH SAMARADORLIGI.....	251
Shokirov Ozod G'aybullay o'g'li	
SHAHAR MAGISTRAL YO'LLARINING TUZILISHI VA TRANSPORT OQIMI	258
Xayrullo Raximovich Baynazarov	
ELEKTROMOBILLAR BATAREYALARINI TURLI IQLIM SHAROITLARIDA QIZDIRISH UCHUN	
SARFLANADIGAN ENERGIYA VA VAQT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH	266
Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich	
ELEKTROMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYALARI FAOLIYATINING BOSHQARUV	
MODEL.....	272
Xasanov Bunyodjon Ibragim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING HUDUDIY	
XUSUSIYATLARI.....	279
Vaisov Dilshod, Madraximov Qahramon	
EKSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY DAVLATLARI	
TARJIBASI	285
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV BAHOLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	
VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	291
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
FERMENTLANGAN NO'XAT UNI VA BUG'DOY UNI ARALASHMASIDAN TAYYORLANGAN NONNING	
SIFATI VA OZIQAVIY QIYMATINI ASOSLASH.....	295
Kamolova Muxlisa, Barakayev Nusratilla	
QURILISH KORXONALARI UCHUN YASHIL STRATEGIK BOSHQARUV MODEL.....	302
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
ИССЛЕДОВАНИЕ ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ СОЛЕВОГО ПЛАСТА И КАРСТА	
ТЮБЕГАТАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ	310
Холбаев Бахром, Курбанов Диярбек	
VALIKLI JINNING IKKI PICHQOLI TIZIMIDA TOLA AJRATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI.....	314
Abdugapparova Sh.N., Yuldashev A.X.	



YO'L-TRANSPORT HODISALARI SODIR BO'LISHIDA HAYDOVCHINING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINING TA'SIRI.....	319
Ulkanov Sardorjon Sodiqjon o'g'li	
QISHLOQ MAHALLALARIDA MARKAZIY ISSIQLIK TIZIMLARINI VODOROD ENERGIYA GENERATORLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK VA IQTISODIY ASOSLARI	323
Askarov Xasanjon, Jumaqulova Zulayho	
MUHIM AXBOROT INFRATUZILMASI OBYEKTLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK BO'YICHA MUTAXASSISLARNI AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN TAYYORLASH	329
G'ulomov Sherzod Rajaboyevich	
BARBOTAJLI ABSORBER QURILMASINING GIDRAVLIK QARSHILIGINI TADQIQ ETISH	338
Xalilov Ismoiljon, Askarov Xasanjon	
MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALARIDA KO'P TARMOQLI KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI	345
Xusanova Malohat Mingnorovna	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING.....	349
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI CHEKLAYOTGAN MUAMMOLAR.....	357
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
РЕАЛИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	364
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING ZAMONAVIY SHAKLLARI: NAZARIY ASOSLAR VA GENDER JIHATLARI TAHLILI.....	371
Xasanova Shaxzoda Sarvar qizi	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TA'LIM RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	375
Masharipova Maksuda Beknazarovna	
MEHNAT MUHOFAZASIDA INSON OMILINING O'RNI VA AHAMIYATI	380
Ashirqulova Qurbonoy, Nurbek Mamatov	
BILIMGA ASOSLANGAN AVTONOM AGENTLAR VA RAG TEXNOLOGIYALARI.....	387
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
EKSPORT SALOHİYATINI BAHOLASHDA QIYOSIY USTUNLIK (BALASSA) INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	395
Olchinboyev Otabek Abdusamad o'g'li	



EKSPORT SALOHIYATINI BAHOLASHDA QIYOSIY USTUNLIK (BALASSA) INDEKSIDAN FOYDALANISH

Olchinboyev Otabek Abdusamad o'g'li

Andijon davlat texnika instituti tayanch doktoranti

otabekolchinboyev79@gamil.com

[orcid: 0009-0002-3648-1945](https://orcid.org/0009-0002-3648-1945)



Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of the methodology for assessing export potential. In particular, it analyzes the results of practical calculations using the comparative advantage index, also known as the Balassa index, as well as the level of comparative advantage in Uzbekistan's exports of leather and footwear products.

Keywords: export potential, foreign trade, Balassa index, industrial sector, economic efficiency, production capacity, leather and footwear production.

Annotatsiya. Ushbu maqolada eksport salohiyatini baholash uslubiyotining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganilgan. Xususan, qiyosiy ustunlik indeksi — Balassa indeksining amaliy hisob-kitob natijalari hamda O'zbekiston charm-poyabzal mahsulotlari eksportining qiyosiy ustunlik darajasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: eksport salohiyati, tashqi savdo, Balassa indeksi, sanoat tarmog'i, iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish quvvatlari, charm-poyabzal ishlab chiqarish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты методологии оценки экспортного потенциала. В частности, анализируются результаты практических расчётов индекса сравнительного преимущества — индекса Балассы, а также уровень сравнительного преимущества экспорта кожевенной и обувной продукции Узбекистана.

Ключевые слова: экспортный потенциал, внешняя торговля, индекс Балассы, промышленный сектор, экономическая эффективность, производственные мощности, кожевенное и обувное производство.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarining izchil rivojlanishi natijasida eksport hajmi kengayib, tashqi bozorlarga yo'naltirilgan mahsulot va xizmatlar turlari diversifikatsiyalanmoqda. Xususan, milliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan raqobatbardosh mahsulotlar eksport salohiyatining oshishiga xizmat qilmoqda. Ular nafaqat an'anaviy tashqi bozorlarda, balki yangi xalqaro bozor segmentlarida ham o'z mavqeini tobora mustahkamlab bormoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sanoat tarmog'i va tashqi savdo faoliyati izchil rivojlanmoqda. 2024-yilda nominal yalpi ichki mahsulot hajmi 127,9 mlrd AQSh dollarini, tashqi savdo aylanmasi esa 67,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 147,06 mlrd AQSh dollariga, tashqi savdo aylanmasi esa 81,2 mlrd AQSh dollariga yetgan. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakat iqtisodiy o'sishining barqaror tendensiyasini namoyon etmoqda [7].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport salohiyati alohida iqtisodiy atama bo'lib, uni ko'plab tadqiqotchilar va olimlar o'z ilmiy ishlarida o'rganganlar. Xususan, E.A. Shutayeva va V.V. Pobirchenko global bozor kon'yunkturasi o'zgarishining eksport imkoniyatlariga ta'sirini hamda tarmoqni intensiv rivojlantirishning eksport salohiyatidan foydalanish darajasiga bog'liqligini o'rganganlar [2]. Tadqiqotda eksport geografiasini kengaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, birinchi navbatda, kirish rejalashtirilgan bozor holati, raqobatchilar, talab yuqori bo'lgan asosiy tovarlar, iste'molchilarning didi va daromadi, shuningdek, bojxona va soliq to'siqlarini baholash zarurligi ta'kidlangan.

M.S. Mamayusupova esa elektrotexnika sanoatining eksport salohiyati va iqtisodiy rivojlanishini, elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlarini, mahsulotlarning eksport ko'rsatkichlari

hamda eksport geografiyasini o'rgangan [3]. Tadqiqotda yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmog'ida ilmiy-tadqiqot institutlarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, elektrotexnika sanoatini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot yutuqlaridan foydalanish samaradorlikning asosiy manbalaridan biri ekanligi ta'kidlangan.

Hao Yu eksport salohiyatini baholash maqsadida tarmoqlarning eksport-import munosabatlarini tahlil qilgan. Tadqiqotchi eksport jarayonlari, xalqaro imtiyozlar, eksport to'siqlari, iste'molchilar didi, raqobatchilarning takliflari va eksport strategiyalarini ko'rib chiqqan [4]. Tadqiqotlarda eksport strategiyasini ishlab chiqishda bozorga kirish kanallarini aniqlash va eksport marketingining ahamiyati alohida ta'kidlangan. Shu bilan birga, eksport imkoniyatlarini kengaytirishda marketing strategiyalariga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish masalasi istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi texnologiyalar davrida marketing strategiyalarini samarali tashkil etish, avvalo, raqamli platformalar va onlayn kanallar orqali savdoni yo'lga qo'yishni talab qiladi. Masalan, Xitoy kabi yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlarda onlayn savdo orqali mahsulot va xizmatlar bevosita iste'molchilarga chakana shaklda yetkazib berilmoqda. Ushbu amaliyot xalqaro savdo mexanizmlarida muhim yangilik va o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, u milliy korxonalarning eksport salohiyatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Eksport salohiyatini baholashning turli usul va metodlari amaliyotda qo'llaniladi. Ulardan biri olim B. Balassa tomonidan ishlab chiqilgan qiyosiy ustunlikni baholash usuli — aniqlangan qiyosiy ustunlik indeksi (*Revealed Comparative Advantage* — *RCA*) hisoblanadi [1]. Uning formulaviy ko'rinishi quyidagicha:

$$RCA_k^j = \frac{x_k^j / x^j}{x_k^w / x^w}$$

Bu yerda:

(x_k^j) — eksport qiluvchi (j) mamlakatning (k) tovari bo'yicha eksport hajmi;

(x^j) — (j) mamlakatning umumiy eksport hajmi;

(x_k^w) — (k) tovarining umumiy jahon eksportidagi hajmi;

(x^w) — umumiy jahon eksporti hajmi.

Aniqlangan qiyosiy ustunlik indeksining qiymati birdan katta bo'lsa, mamlakat mazkur mahsulot bo'yicha qiyosiy ustunlikka ega ekanligini anglatadi.

Mazkur yondashuv eksport salohiyatini savdo hamkorlari talabining eksport taklifiga muvofiqligi hamda mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobat ustunligi asosida kompleks baholash imkonini beradi. Savdo komplementarligi indeksi istiqbolli tashqi bozorlarni aniqlashga xizmat qilsa, Balassa indeksi mamlakatning qaysi mahsulotlar bo'yicha qiyosiy ustunlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bois ushbu model eksportni diversifikatsiya qilish, ustuvor mahsulotlarni tanlash va yangi eksport bozorlarini belgilashda samarali vosita hisoblanadi. Mazkur model orqali hududiy qiyosiy ustunlikni ham baholash mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot eksport salohiyatini baholashda qiyosiy ustunlik (Balassa) indeksidan foydalanishning nazariy va amaliy tahlil usullariga asoslangan bo'lib, maqola matnini tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha yordamchi vosita sifatida foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu baholash usulidan Jahon bankining jahon integratsiyalashgan savdo ko'rsatkichlarini baholash mezonlari tarkibida alohida foydalaniladi [5]. Tarmoq yoki mahsulotning qiyosiy ustunligini baholash ilmiy tadqiqot natijalarini amaliy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlari tarkibida charm-poyabzal sanoati yuqori qo'shilgan qiymat yaratish xususiyati bilan ajralib turadi. Mamlakatimiz charm-poyabzal sanoati salohiyati yuqori bo'lib, O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida poyabzal ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Buni mamlakat charm-poyabzal mahsulotlari eksporti natijalari orqali yanada aniqroq ko'rish mumkin (1-jadval).



1-jadval
Jahon va O'zbekiston Respublikasining eksport ko'rsatkichlari [6; 7]
(mlrd AQSh dollarida)

Yillar	Xalqaro bozor		O'zbekiston Respublikasi	
	Jami eksporti hajmi	charm-poyabzal mahsulotlari eksporti hajmi	Jami eksporti hajmi	charm-poyabzal mahsulotlari eksporti hajmi
2016-y.	15 988	119,4	12,1	0,19
2017-y.	17 578	126,8	12,88	0,105
2018-y.	19 346	134,7	14,26	0,1249
2019-y.	18 982	138,9	17,06	0,0869
2020-y.	17 432	114,6	15,1	0,037
2021-y.	22 338	146,8	16,66	0,038
2022-y.	25 337	161,5	19,73	0,0462
2023-y.	24 011	133,8	24,87	0,0831
2024-y.	24 430	141,6	26,95	0,0712
2025-y.	26 160	148,9	33,81	0,0671

Jahon bozorida umumiy eksport hajmi 2016-yildagi 15,99 trln AQSh dollaridan 2025-yilda 26,16 trln AQSh dollariga yetgan. Global charm-poyabzal mahsulotlari eksporti ham 2016-yildagi 119,4 mlrd AQSh dollaridan 2025-yilda 148,9 mlrd AQSh dollarigacha oshgan. O'zbekistonda esa jami eksport hajmi 2016-yildagi 12,1 mlrd AQSh dollaridan 2025-yilda 33,81 mlrd AQSh dollariga yetib, qariyb 2,8 barobar oshgan. Bu mamlakat eksport salohiyatining bosqichma-bosqich kengayib borayotganini hamda tashqi savdo faoliyatining faollashganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi charm-poyabzal mahsulotlari eksportining jahon bozori ko'rsatkichlariga nisbatan qiyosiy ustunligini tahlil qilganimizda, 2025-yil uchun quyidagi natija olindi:

$$RCA_k^j = \frac{67,1 \text{ mln. dollar} / 33,81 \text{ mlrd. dollar}}{148,9 \text{ mlrd. dollar} / 26160 \text{ mlrd. dollar}} = \frac{0,00199}{0,00569} = 0,35$$

O'zbekistonning charm-poyabzal mahsulotlari eksporti bo'yicha qiyosiy ustunlik indeksi 2025-yilda qariyb 0,35 ga teng bo'lgan. Qolgan yillar bo'yicha hisob-kitob natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval
O'zbekiston Respublikasi charm-poyabzal mahsulotlari eksportining qiyosiy ustunlik indeksi natijalari (koeffitsiyentda)

Yil	Balassa indeksi natijalari
2016-y.	2,10
2017-y.	1,13
2018-y.	1,26
2019-y.	0,70
2020-y.	0,37
2021-y.	0,35
2022-y.	0,37
2023-y.	0,60
2024-y.	0,46
2025-y.	0,35

Baholash natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining charm-poyabzal mahsulotlari eksporti bo'yicha

Balassa qiyosiy ustunlik indeksi 2016–2025-yillar davomida sezilarli o'zgarishlarni qayd etgan. Mazkur indeksning 1 dan yuqori qiymati mamlakatning ushbu mahsulot guruhi bo'yicha qiyosiy ustunlikka ega ekanligini, 1 dan past qiymati esa qiyosiy ustunlikning yetarli darajada shakllanmaganligini anglatadi.

Jadvaldan ko'rinadiki, 2016-yilda Balassa indeksi 2,10 ni tashkil etib, O'zbekiston charm-poyabzal mahsulotlari eksportida yuqori qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan. 2017 va 2018-yillarda ham indeks mos ravishda 1,13 va 1,26 qiymatlarni qayd etgan bo'lib, bu tarmoqning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi saqlanib qolganini ko'rsatadi. Ushbu davrda mamlakatda charm-poyabzal sanoatini rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar ijobiy natija bergan.

2019-yildan boshlab indeks 1 dan pastga tushib, 0,70 ni tashkil etgan. 2020-yilda esa ko'rsatkich 0,37 gacha pasaygan. Ushbu pasayish, avvalo, COVID-19 pandemiyasi oqibatida xalqaro savdo zanjirlarining uzilishi, logistika xarajatlarining oshishi, tashqi bozorlarda talabning qisqarishi hamda eksport hajmining kamayishi bilan bog'liq. Natijada mamlakatning charm-poyabzal mahsulotlari bo'yicha qiyosiy ustunlik ko'rsatkichi pasaygan.

2021–2022-yillarda indeks mos ravishda 0,35 va 0,37 darajasida saqlanib qolgan bo'lsa, 2023-yilda 0,60 gacha oshgan. Bu davrda eksport hajmining tiklanishi, yangi tashqi bozorlarga kirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar hamda ishlab chiqarish hajmining ortishi ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, indeksning 1 dan pastligi ushbu mahsulot guruhi bo'yicha barqaror qiyosiy ustunlikni yanada mustahkamlash zarurligini anglatadi.

2024 va 2025-yillarda indeks mos ravishda 0,46 va 0,35 ni tashkil etgan. Mazkur holat eksport tarkibida charm-poyabzal mahsulotlari ulushini yanada oshirish, xalqaro bozorlardagi raqobat sharoitiga moslashish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Balassa qiyosiy ustunlik indeksi natijalari O'zbekiston charm-poyabzal sanoati 2016–2018-yillarda xalqaro bozorda qiyosiy ustunlikka ega bo'lganini, 2019-yildan boshlab esa ushbu ko'rsatkichning pasayganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi davrda indeksning 1 dan past darajada saqlanib qolishi tarmoq eksportining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini bildiradi.

Shu sababli eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, zamonaviy dizayn va innovatsiyalarni joriy etish, xalqaro sifat sertifikatlarini olish, shuningdek, marketing va logistika tizimini takomillashtirish orqali tarmoqning qiyosiy ustunligini mustahkamlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Balassa B. Trade Liberalisation and "Revealed" Comparative Advantage // *The Manchester School*. – 1965. – Vol. 33, No. 2. – P. 99–123. – DOI: 10.1111/j.1467-9957.1965.tb00050.x.
2. Шутаева Е. А., Побирченко В. В. Экспортный потенциал виноградарско-винодельческой отрасли Республики Крым // *Геополитика и экогеодинамика регионов*. – 2025. – Т. 11 (21), вып. 1. – С. 246–259.
3. Mamayusupova M. S. Elektrotexnika sanoati mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish rivojlanishning muhim omili sifatida // *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*. – 2023. – 3-jild, 2-son. – B. 65–72. – DOI: 10.5281/zenodo.7732836.
4. Yu H. *New Zealand Wine Exports to China: Barriers and Potential Mitigation Strategies*: thesis submitted in partial fulfilment of the requirements for the degree of Master of Commerce and Management. – Lincoln: Lincoln University, 2024. – 164 p.
5. World Bank. World Integrated Trade Solution (WITS): About WITS [Elektron resurs]. – URL: https://wits.worldbank.org/about_wits.html (murojaat sanasi: 28.07.2026).
6. World Trade Organization. WTO Data: Databases [Elektron resurs]. – URL: <https://data.wto.org/en/databases/> (murojaat sanasi: 28.07.2026).
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Rasmiy statistika va ochiq ma'lumotlar [Elektron resurs]. – URL: <https://stat.uz/uz/> (murojaat sanasi: 28.07.2026).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100